

## **BAHOUDDIN NAQSHBANDINING YOSHLAR TARBIYASIGA OID QARASHLARI**

Ilmiy rahbar: Samatov X. U.

Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti Samarqand filiali

Usmonov Bahodir

AX23-08 guruh talabasi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqola islom olamining eng mashhur avliyolaridan biri Bahouddin Naqshbandning yashlar tarbiyasiga oid qarashlari va hayoti haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** islom, din, xalifa, adolat, erkinlik, hadis, qur'on, ilm, ma'rifatga sodiqlik.

Mamlakatizmizda kamol topgan ulug' muhandislar, fozilu fuzalolarning nomini butun dunyoda yaxshi biladi. Bobokalonlarimiz bilan nafaqat faxrlanishimiz, balki ularning boy ma'naviy me'rosini tadqiq va targ'ib etish burchimizdir. Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan 1993-yil Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi munosabati bilan O'zbekistonda alloma ta'llimotini o'rganishga ahamiyat kuchaydi. Buxoro davlat universiteti huzurida "Naqshbandiya" ilmiy markazi ish boshladi. U yerda tasavvufiy-irfoniy merosni tadqiq etish yo'lga qo'yildi. Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasida ham „Naqshbandiya“ markazi tuzildi<sup>1</sup>.

Butun dunyoda Jo'naydiya, Qodiriya, Naqshbandiya, Kubroviya, Chishtiya, Suhravardiya tariqati ma'lum va mashhurdir. Tariqat degan so'z aslida to'g'ri yo'l, rost yo'l degan ma'nolarni anglatib keladi. Tariqat ahli so'fiylardir. Sharia - qonun, tariqat - yo'l. bu yo'l kishini Haqqa yaqinlashtiradi. Mashoyihlar haqqa yetmoq uchun shariat birinchi, tariqat ikkinchi, haqiqat esa uchinchi zinadir, deganlar.

Shariat, tariqat, haqiqatni bir - biriga qarshi, deb talqin etmoq noto'g'ridir. Bu aqida bazi bir g'arb islomshunoslarining fikri bo'lib, ular, tariqatni shariatga zid yoxud tariqat shariatdan ko'ra ilg'orroq, deb tushuntiradilar. Bunday talqin mutloq noto'g'ri. Zero, Shayx Voiz Koshifiy, shariat tariqat, haqiqat bir butun, bir-biri bilan

<sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Bahouddin\\_Naqshband](https://uz.wikipedia.org/wiki/Bahouddin_Naqshband)





uzviy bog'liq, deb ta'kidlangan. Tariqati naqshbandiya pirlaridan biri bo'lган Hazrat Mir Kulol esa tariqat shariatining nigohdoshti, ya'ni muhofaza etuvchisidir, deganlar.

Naqshbandiya tariqati Qur'oni Karim va hadisi sharifdagi talimatga asosan shakllangan. Tariqat pirlarining asosiy maqsadi – payg'ambar alayhissalomning sunnatlarini qayta tirlitirish. Ikkinchi vazifalari esa bid'at va xurofotga qarshi kurashish. Zero, payg'ambar alahhissalom: "bid'at va xurofotga berilganlar eng yomon kishilardir, bid'at xurofotga berilgan odam to uni tark etmaguncha uning qilgan savob ishlarini Tangri qabul qilmaydi", deganlar.

Islom dini haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo din nima ekanligini bilishimiz zarur. **Din** (arabcha: دین – „e'tiqod“, „ishonch“, „itoat“) jamoat tomonidan shifrlangan qadimiyo yozuvlar mifologiya va rituallarga qat'iy amal qilingan holda bajariluvchi harakatlar to'plamidir.<sup>2</sup> Shuningdek, shaxsiy e'tiqod hamda mistik kechinmalardan iborat bo'lishi ham mumkin. „Din“ atamasi ham jamoat e'tiqodiga oid shaxsiy amaliyotlarni, ham guruh tomonidan bajariluvchi rituallarga qo'llanadi. Islom diniga yanada chuqurroq kirar ekanmiz "Allohning buyukligi va yagonaligiga, Muhammad (s.a.v) uning payg'ambari ekanligiga iymon keltiramiz". Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) ni yodga olish barobarinda islom olamidagi eng buyuk sahoba, Hazrat Bahouddin Naqshbandni yodga olamiz.

Islom olaming eng mashhur avliyolaridan biri, naqshbandiya tariqatining asoschisi Xoja Bahouddin Naqshband haqida, uning ta'limoti xususida, naqshbandiy shayxlar to'g'risida talay asarlar yaratilgan. Birgina O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasining o'zida naqshbandiyaga doir 195 kitob mavjud. Jumladan, Saloh ibn Muborak al-Buxoriyning "Anisu-t-tolibiy va uddatu -s-solikiyn" (Toliblar oshnasi va soliklar rahnomasi) asarida Bahouddin Naqshbandning hayot tarzi, kashfu karomatlari va purhikmat so'zlaridan namunalar beriladi. Bu asar "Maqomati hazrati Xojai Naqshband" nomi bilan yuritiladi. Shu muallifning 4 qismdan iborat "Manoqibi Xoja Bahouddin Naqshband" (Xoja Bahouddin Naqshbandning ta'rif va tavsiflari) asari ham bor. Bularidan tashqari Bahouddin Naqshbandning suyukli xalifasi Xoja Muhammad Porso yozib qoldirgan bir necha asar orqali valiylikning ta'rifi, Bahouddin Naqshbandning tariqatdagi ilk davrlari, uning suhbatlari va

<sup>2</sup> „Religion – Definition of Religion by Merriam-Webster“. 12-mart 2021-yilda asl nusxadan arxivlandi.



hikmatli so‘zlar bilan tanishish, islom aqidasi, ibodat, shariat va tariqat ahkomlaridan baxramand bo‘lish mumkin<sup>3</sup>.

Hazrat Bahouddin Naqashband quddisa sirihu – asl ismi Muhammad ibn Muhammad Jaloliddin bo‘lib, Xojai Buzrug (ulug’ Xoja), Shoxi Naqashband Bahouddin nomlari bilan butun G’arbu-Shaqda mashhur.

Xoja Bahouddin Buxoro yaqinidagi Qasri Hinduvonda tug’ilgan. Keyinchalik bu zoti sharif barokotidan Qasri Hinduvon Qasri Orifonga aylangan. Tug’ilgan sanalari 1318-yil. Bahouddin bolalikda Xoja Muhammad Boboyi Samosiy farzandlikda qabul qilingan. Tariqat odobini Bahouddin Mir Kuloldan olgan. Lekin haqiqat yuzasidan uvaysiy bo‘lib, Xo‘ja Abduxoliq G’ijduvoniy ruhlari Hazrat Bahouddinni tarbiya qilgan<sup>4</sup>. Xalq orasida Bahouddin, Bahouddinjon, Xoja Bahouddin, Bahouddin Balogardon, Balogardon, Xo‘jayi Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan ham mashhur. Xoja Bahouddin Naqshbandning asl ismi Muhammaddir. Manbalarda u kishining otasi ham bobosi ham Muhammad ismida bo‘lgani qayd etiladi. Bahouddin Naqshbandning nasabi ota tarafdan Hazrat Aliga, ona tarafdan hazrat Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi. Xojalar avlodidan bo‘lgani uchun uning nomi oldiga xoja so‘zini ishlatish rasm bo‘lgan. Yoshligida otasi bilan birga kimxobga naqsh solish hunari bilan mashg‘ul bo‘lgani uchun Naqshband laqabi bilan mashhur bo‘lgan. O‘scha davrda matolarga naqsh ishlagan, naqsh solingan ko‘ylaklar yoki naqshli gilamlar to‘qigan kasb egalari naqshband deyilgan. Bahouddin” so‘zi “Dinning nuri” degan ma’noni anglatadi. Bu Xoja Naqshbandga keyinchalik berilgan faxrli unvon.

Hazrat Bahouddin Xoja Orif, Qusam Shayx, Halil Otalardan ham ta’lim olgan.

“Maqomati Shoxi Naqashband”da yozilishicha, Hazrat Bahouddin Hazrat Xizir alayhissalom bilan bir necha marotaba hamsuhbat bo‘lgan. Naql qilinishicha, Shayx Amir Husayn dedi: bir kun Qasri Orifonda Hazrat Xojamiz (ya’ni Bahouddin) menga ish buyurdilar. Men shul yumush bilan band edim. Ko’rdimki, Hazrat Xojamiz ul aziz bilan hovuz labida o’tirib, suhbatlashdilar. Hazrat Xojamiz ul azizni kuzatib menga dedilarki: ey Amir Husayn, Xizir alayhissalomni ko’rding. Men esa: sizning xizmatningiz bilan band edim, deb javob berdim.

Bir necha kundan keyin hazrat Xojamiz meni Buxoro shahriga ish bilan yubordilar. Bozorga o’tayotganimda Chor sudi ko’rdimki, ul aziz masjidda o’tiribdilar. Hazrati Xizrnning yonlariga boray deb ikki qadam qo’ydum, xotirimga keldiki, xojam meni

<sup>3</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Bahouddin\\_Naqshband](https://uz.wikipedia.org/wiki/Bahouddin_Naqshband)

<sup>4</sup> <https://religions.uz/uz/news/detail?id=746>



yumush bilan jo'natganlar. Darhol qaytdim va Xojam va vazifalarini ado etib, Qasri Orifonga keldim. Meni ko'rishlari bilan Xoja dedilarki: yana bir qadam Xizrga qarab qo'yaningda dinu dunyoning barbod bo'lar edi.

"Tuhfatul ansobda" Bahouddin nasablari haqida ma'lumot berilgan: Hazrat Bahoul haq vid-din Sayyid Muhammad ibn Sayyid Burhoniddin ibn Sayyid Shabon ibn Sayyid Abdulloh ibn Sayyid Zaynulobiddin ibn Sayyid Shabon ibn Sayyid Burhon ibn Sayyid Mahmud ibn Rumiya ibn Sayyid Ishoq ibn Sayyid Taqi ibn Sayyid Mahmud Jome ibn Sayyid Ali Akbar ibn Sayyid Ali Akbar ibn Hazrat Imom Ali Musoar Rizo ibn Zaynulobiddin ibn Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib.

Hazrat ona tomonidan Siddiqiydurlar, yani nasablari Abu Bakr Siddiqqa borib taqaladi.

"Maqomati Shoxi Naqashband"da qayd qilinganki, Sultonul Orifin (yani Boyazid Bastomiy) aytibdurlarki, bu yo'lga kirganlar har qancha yurganlar bilan, alarming oxirgi qadamiga bizning birinchi qadamimiz etur. Xojamiz (yani Bahouddin) buyuribdilarki, g'ayrat yuzasidan Haq Taolo suhbatni harom bo'lsin ul kishigaki, uning birinchi qadamin Boyazidning oxirgi qadamiga yetmasa va dedilarki, biz intihonni ibtidoda darj ayladik.

Quyidagi bayt Hazrat Bahouddin Naqashbandnikidur:

Hechi mo neyu hechimo kam ne,  
Az payi hech mo g'am ne.  
Janda dar pushtu pusht go'riston,  
Gar mirem mo hech motam ne

Mazmuni: hech narsamiz yug'u hech narsadan g'amimiz ham yuq. Hech narsamiz yuqligi uchun g'amimiz ham yuq. Jandamiz orqamizda – ortda go'riston, gar o'lsak, hech qanday motam ham yuqdir.

Bahouddin Naqshbandning umri asosan Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda o'tgan.<sup>5</sup> G'aribona hayot kechirgan, faqat o'z mehnati bilan kun ko'rgan. Xizmatkor yoki qul saqlamagan. O'z ta'limotini yaratishda Yusuf Hamadoniy va Abdulkoliq G'ijduvoniy nazariyalariga asoslangan. Ta'limoti asosida: "Dil – ba yor-u, dast – ba kor" ("Ko'ngil Alloha bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin"), – degan shior yotadi. Tasavvufdagi har qanday tariqat kabi, xojagon-naqshbandiya tariqati ham o'z g'oyalari, tartib-qoidalari, odoblari va qat'iyatlarini shakllantirishda juda qadim rishtalardan suv ichgan. Ammo tariqatning butun mohiyatini uning bosh shiori bo'lmish: "Dil – ba yor-u, dast – ba kor" hikmati

<sup>5</sup> <https://religions.uz/uz/news/detail?id=746>



hamda yana o'n bir qoida belgilab beradi. Bu qoidalalar "rashhalar", ya'ni "tomchilar" deb yuritilgan. Rashhalar Yusuf Hamadoniy, Abdulkholiq G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshband taraflaridan asoslangan.

Hazrat Bahouddin "hayotnama", "Dalekul oshiqin", nomli kitoblar muallifidirlar.

Hazrat Bahouddining bиринчи xalifalari Alouddin Attor, иккинчи xalifalari Xoja Muhammad Porso (1419 yilda vafot qilgan) hisoblanadilar. Bu zoti sharifning ismlari Muhammad ibn Muhammad al Hofiz al Buxoriyidir.

Hazrat Bahouddin vafotidan bir kun oldin muridlarning hammasini Xoja Muhammad Porsoga tobe bo'lishni vasiyat qilgan. 1389 yil Bahouddin Buxoriyi sharif yaqinidagi Qasri Orifonda vafot etadi. Juda ko'p shoirlar Hazrat vafotlariga atab tarix bitgan, lekin eng mashhuri mana budir:

Raft shohi Naqshbandon Xojai dunyovu din,  
On ki budi shohi rohu dinu davlat millatash.  
Maskanu ma'voi u chun bud Qasri Orifon,  
"Qasri Orifon" z-in sabab omad hisobi rehlatash.

Mazmuni: dunyo va dinning Xojasi shohi Naqshband vafot qildi, u dinu davlatning shohi edi. Uning maskanu ma'nosи Qasri Orifon bo'lган. Shu sabab vafot etish tarixi "qasri Orifon"dan chiqadi.

Hazrat Bahouddin Naqshband qabrlari Abdulazizzon tomonidan tartibga solinib ko'rakam shaklga kiritilgan. Bul muborak qadamjoni obodonlashtirishda Temuriylardan tortib mang'it amirlarigacha o'z hissalarini qo'shganlar. Xonaqoh Shayboniylar sulolasiga mansub Ubaydulloxonning o'g'li Abdulazizzon (1540-1549 yillarda hukmronlik qilgan) tomonidan 1544-1545 yilda qurulgan Maqbara atrofida masjid, hovuz, quduq, minora, darvozaxona bor. Bahouddin mozorlarining kun botar tomonida Daxmai Shohon, ya'ni shohlar daxmasi joylashgan. Bunda ko'plab Buxoro amirlari va ularning avlod ajdodlari ko'milgan.

Eng ko'p tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biri naqshbandiylikdir. Bahouddin Naqshband "Az-zohir lil-xalq al-botin lil Haq", ya'ni zohirda xalq, botinda Haq bilan bo'lib, tasavvufiy hayot kechirishga chaqirgan. Naqshbandiylik tariqatining ijtimoiy, dunyoviylik jihatи uning ilohiylik jihatidan ustun bo'lib, Bahouddin Naqshband va uning izdoshlari faqat yaxshilikni o'yab, yaxshilik qilishdan charchamaslik, ezgu xulq-atvorga ega bo'lish, muhtojlar hojatini chiqarish, yoshlarimiz uchun juda muhim.



Bahouddin Naqshband yaratgan ta'limot asosidagi mehnatsevarlik, insonparvarlik, ilm-ma'rifatga intilish va butun borliqqa muhabbat g'oyasi bugungi kunda ham komil insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.AKarimov 2003 yil 28 noyabr kuni ulug' alloma Abdulxoliq G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligiga bag'ishlangan anjumanda so'zlagan nutqida shunday degan edi: «Buxoroni Buxoroi sharif darajasiga ko'targan ana shunday ajdodlarimiz orasida hazrat Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida nufuz va makomga ega.

Butun harakat-faoliyat, o'git-nasihatlar, toat-ibodat ham insoniylik jahbalarini kashf etishga qaratilgan. Insoniylik javhari esa ilohiy axloq va islomiy iymon mustahkamligini ta'minlash orqali qo'lga kiritiladi.<sup>6</sup>

Sho'rolar zamonda hazrat Bahouddin Naqshband ta'limotiga e'tibor qilinmadı, ul zotning maqbarasi, Qasri orifon majmui tashlandiq holda qoldi. Istiqlolning dastlabki yillardan boshlab, Yurtboshimiz tashabbuslari bilan bu majmua ta'mirlab, obod qilindi. 1993 yilda Naqshband hazratlari 675 yilligi jahon miqyosida nishonlandi. Prezidentimiz shaxsan o'zlari Naqshband qadamjoylarini obod qilish ishlarini ko'zdan kechirish uchun Buxoroga uch marta tashrif buyurdilar. Bu joy hozir Qubbat ul-islam nomi bilan mashhur bo'lgan Buxoroi sharifning eng ko'rksam joylaridan biriga aylandi. Bu yerga dunyoning turli go'shalaridan sayyoohlар kelib, ziyorat qilmoqdalar.

Mamlakatimiz rahbari o'z nutqlaridan birida deganlar:

“Buxoroni Buxoroi sharif darajasiga ko'targan ana shunday ajdodlarimiz orasida hazrat Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida nufuz va mavqega ega. Bu ulug' shaxs timsolida inson ruhiyatining naqadar teranligi, bu dunyoda o'z irodasini tarbiyalab, qalbini poklab, nafs balosini yengib yashaydigan odam qanday ma'naviy yuksaklikka qo'tarila olishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Bu buyuk zot... ma'rifat yo'lida odamlarning qalbiga chuqur kirib borish orqali ularda ezgu intilishlar, orzu-umidlar uyg'otish mumkinligini... isbotlab berdi". Shu bois naqshbandiya ta'limoti hozir ham qiziqish bilan o'rganilmoqda, manbalar nashr ettirilmoqda. Bu ta'limot istiqlolga erishgan xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilaveradi.

Buxoroyi sharifda barpo etilgan xojagon-naqshbandiya tariqati ham o'sha davrda ilm va ma'rifat markazi hisoblangan bu o'lkaning madaniy turmush tarziga uyg'un tarzda shakllandi.

<sup>6</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/xoja-naqshband-al-avrod-parcha.html>

Xulosa qilib aytganda Bahouddin Naqshbandning yoshlar tarbiyasidagi qarashlari, ularning islomiy manbalardagi o'qitishlarga va ruhan taraqqiyotlarga e'tibor berishga aloqador. U qiziqarli, hurmatli va adolatli odamlarni yetishtirishni rag'batlantirgan, shuningdek, insonlarga adabiyot, ibodat va ijod ahamiyatini o'rgatgan. Bu qarashlar insonning shaxsiy rivojlanishiga ijtimoiy faollikka va muomila qilishga bo'lган hissiyat va ma'naviyatga boy bo'lishda yordam bergan. Naqshbandning qarashlari insonlarning jamiyatda o'z o'rnini olishi, yaxshi inson bolishi va inson parvarlik ruhini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Naqshbandiya tarriqati yoshlarni badiiy ma'naviy va diniy tarbiyalashda muvofaqqiyatli bo'lishi uchun o'ziga xos metodlarni qo'llab-quvvalaydi. Bu tarbiya badiiyat, adabiyot, zikr va fikr amaliyoti o'zi o'zini tanishish va o'zini tartibga solish asosida amalga oshiriladi. Bu usul o'qituvchilar va murshidlar orqali bajariladi va insonni ma'naviy tarafdarlik, sabr, hurmat va xushmijotga o'rgatishga asosiy muhitni yaratadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deganlar; "Har qanday obodlik ko'ngildan boshlanadi", to ko'ngil obod bo'lmasa, bunday hashamatli, bunday ko'rak, bunday fayzli majmuani bino qilib bo'lmaydi.

Hazrat Bohouddin majmularini ziyorat qilayotganingizda o'tgan ulug'larimizning quyidagi qalb so'zlari qulog'ingizga eshitilsa, aslo ajablanmang:

Bizni yod etganni – Olloh yodga olgaydur,  
Allarning yuragiga Olloh tavfiq solgaydur.  
Bizni e'zozlaganni Olloh e'zozlar beshak,  
Azizlarning yodida alar nomi qolgaydur.

Bizni yod olganning zamoni obod bo'lgay,  
Makoni obod bo'lgay, jahoni obod bo'lgay.

Ne eksa o'rib olgay o'shani odam, beshak,  
Bizni yod olganning xirmoni obod bolgay!

Mana shunday ulug' zotlarimiz, bobokalonlarimiz borligidan faxrlanishimiz kerak. Hazrat Bahouddining ulug' nomlariga munosib ziyoratgoh barpo etilgandir. Bu ulug' joyga kelgan odam ko'radi va qoyil qoladi. Mashoyixlarimizning bir ajoyib gaplari bor: "Ming eshitgandan bir ko'rgan afzal" deganlar.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sadriddin Salim Buxoriy Bahouuddin Naqshband yoki yetti pir - "Yozuvchi" nashriyoti – Toshkent 15b
2. Ummataliyev. S. Ilk islam tarixidan oltin sahifalar. Ummaviylar davri. -T. : O'qituvchi, 2021. – 296 B.
3. Islom ensiklopediyasi. -T. : O'zbekiston milliy ensiklopediyasi,2004.
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Bahouddin\\_Naqshband](https://uz.wikipedia.org/wiki/Bahouddin_Naqshband)
5. „Religion – Definition of Religion by Merriam-Webster“. 12-mart 2021-yilda asl nusxdan arxivlandi
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Bahouddin\\_Naqshband](https://uz.wikipedia.org/wiki/Bahouddin_Naqshband)
7. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=746>
8. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/xoja-naqshband-al-avrod-parcha.html>
9. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
10. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
11. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
12. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
13. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
14. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
15. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
16. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
17. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.